

## HIDOYAT YO'LI

Salimova Oyjamol Odiljon qizi

*Namangan davlat chet tillar instituti  
Jahon tillar fakulteti I – bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada hidoyat qanday yo'lligi, uning qarama qarshishi zalolat qanday yo'lligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Аннотация** В данной статье содержится информация о пути руководстваб его противоположности пути заблуждения.

**Annotation:** In this article, information is given about the way of guidance, its oppsite, the way of misguidance.

**Kalir so'zlar:** *Hidoyat yo'li, foniy dunyo, qur'on va sunnat*

**Ключевые слова:** *путь руководства, смертный мир, коран и сунна*

**Key words:** *The way of guidance, phantom world, Quran and sunnah*

## HIDOYAT – ASLIDA NIMA?

Hidoyat bu to'g'ri yo'ldir. Uning qarama – qarshisi zalolatdir ya'ni to'g'ri yo'ldan ozishlikdir. Alloh subhanahu va Taolo Rasuli akram alayhissalotu vassalamga shunday deb hitob qiladi: “Sen xohlagan kishingni hidoyatga ergashtira olmaysan, lekin Alloh Taolo o'zi xohlaganiga hidoyatni ato qilur”. Bundan “Birin kishini hidoyatga dav'at qilishning foydasi yo'q” ma'nosi chiqmaydimi?

- Qur'oni kariymdagi “hidoyat” so'z ikki ma'noda ishlatiladi. Birinchisi, rabboniy ma'rifat nurining qalbgga kirishi. Mana shu ma'nodagi hidoyat Alloh Taologa xosdir. Alloh Taoloning Ey Muhammad! Siz o'zingiz suygan kishilarni hidoyat qila olmaysiz...” oyatida nazarda tutilgan ma'no mana shudir.

- Ikkinchi, adashgan insonni tushuntirish, dalillarni bayon qilish va suhbat bilan haq yo'lga boshlash. Mana shu ma'nodagi hidoyatni Alloh anbiolari va o'zining solih ulamo bandalari uchun joriy qilgan. Alloh Taoloning; “...Albatta, siz (vahiy yordamida) to'g'ri yo'lga boshlaysiz” oyatidan mana shu ma'no iroda qilinadi. “Hidoyatga boshlash yoki zalolatni ravo ko'rish yolg'iz Allohning qo'lidadir. Hidoyat va zalolat Alloh Taoloning degan fikrlar Qur'oni Kariymda zikr etilgan: “Albatta, Alloh zolim qavmlarni hidoyat qilmas”. (Moida surasi 51)

(Zumar surasi 3 oyat) da esa “Yolg'onchi va kofir kimsalarni hidoyat qilmas”

(Sof surasi 5 oyat)da esa “Ular (haqdan) burilgan edilar, Alloh ularning qalbini burib qo'ydi. Alloh fosiq qavmlarni hidoyat qilmas” deyilgan. Alloh Toloning hidoyati yahshi sifatlarga, go'zal insoniy fazilatlariga ega bo'lgan insonlarga beriladi. Alloh Taolo aytadi: “Sizlarga men tarafdin hidoyat kelganida kim mening hidoyatimga ergashsa yo'ldan ozmas va bahtsiz bo'lmas” (Toha surasi 123) Shubhasiz, Qur'oni va sunnatni mahkam ushlashda bid'atu zalolatlarga tushishdan omonlik bordir. “Albatta, mana shu mening to'g'ri yo'limdir. Bas, shu yo'lga ergashinglar! Boshqa yo'llarga ergashmangizki, ular sizlarni uning yo'lidan uzib qo'yar” (An'om Ibn Mas'ud roziallohu anhu rivoyat qiladi: Nabiy sollallohu alayhi vasallam bir chziq chizdilar – da so'ng: “Bu Allohning to'g'ri yo'lidir” dedilar. Uning o'ng va chap tarafiga bir necha chiziq tortib: “Bular shunday yo'llarki, har birining ustida bittadan shayton unga chorlab turadi”, so'ng quyidagi oyatni o'qidilar: “Albatta, mana shu mening to'g'ri yo'limdir. Bas, shu yo'lga ergashinglar! Boshqa yo'llarga ergashmangizki, ular sizlarni uning yo'lidan uzib qo'yar” (An'om surasi 153) Alloh Taolo Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga itoat qilishni va ergashishni bandaning Alloh muhabbatiga erishishiga, gunohlari mag'firat etilishiga sabab

qildi. Alloh Taolo aytadi: “Ayting ( ey Muhammad): Agar Allohni sevsangiz, menga ergashinglar. Shunda, Alloh sizlarni sevadi va gunohlaringizni mag’firat qiladi” (Oli imron 31) Shuningdek, u zotga itoat qilishni hidoyat, osit bo’lishni zalolat deb atadi: “Agar unga bo’ysunsangiz, hidoyat topursiz-lar “ (Nur surasi 54)

“Endi agar ular sizga javob bera olamasalar, bas, bilingki ular faqat havoyi nafslarigagina ergashurlar. Alloh tomonidan hidoyatlanmagan o’z havoyi nafsga ergashgan kimsadan ham yo’ldan ozganroq kim bor? Albatta Alloh bunday zolim qavmni hidoyat qilmas” (Qasas surasi 50)

Shayxulislom ibn taymiya rahimahulloh “Maj- mu’ul fatvo”da (10/354) aytadi: Bilingki, ilmlar va ibodatlarga taalluqli bo’lgan aksari bid’atlar ummat ichida xulafoi roshidiynlarning oxirgi davr – larida sodir bo’ldi. Payg’ambar sollallohu alayhi va sallam habar berganlaridek: “Mendan keyin yashaganlaringiz tez orada ho’p ixtiloflarni ko’radi. Shunda sizlar mening sunnatimni hamda xulafoi roshidiyn va mahdiyyin hidoyat va to’g’ri yo’l ustidagi xalifalar sunnatini mahkam ushlanglar” (Abu Dovud, Termiziy rivoyatlari.)

Ba’zi bir kishi yahshigina ilmga ega bo’lishi mumkin biroq niyati buzuq, nopok, hidoyatga nomunosib bo’lgani uchun uni hidoyatdan mahrum etiladi. “Agar Alloh ularda biron yahshilikni bilganda edi, albatta ularning quloqlarini ochib qo’yan bo’lur edi va agar Alloh ularning quloqlarini ochib qo’yanida ham yuz o’girgan hollarida ketgan bo’lur edi”. Bu kabi kishi o’ta qotib ketgan yerga o’xshaydilar, unga har qancha yomg’ir yog’masin, baribir befoyda, undan biron bir narsa unib chiqmaydi. Qalb ham shunday qattiq bo’lsa nasihatni qabul qilmaydi. Qattiq qalb Alloh Taolodan juda ham yiroq bo’ladi. Agar insonni qalbi hidoyat nuri ila nurlanar ekan uning qilayotgan amallarida, so’zlayotgan so’zlarida faqat yolg’iz Alloh Taoloning roziligini ko’zlab bajaradi. Uning amallarida, so’zlarida hikmat buloqlari otilib chiqqaydir. Alloh kimniki hidoyatga boshlasa u bandani o’zi asraydi, zalolat botqog’iga botishdan jarlik tomon borishdan o’zi asraydi. Zalolat yo’lini tanlab umrini g’afatda o’tkazgan inson haq va botilni ajrata olmay tubsiz jarlikka qulaydi. Agarda kimnidir adashtirsa uni Alloh Taolodan o’zgasi hidoyatga boshlay olmaydi. Hikmatli kitob Qur’onni oyatlari hidoyatdur, rahmatdur, muhsinlarga muxlis hidoyatni chin qalbdan istaganlarga hidoyat qur’on. Shuning uchun ba’zi bir kishilar qur’on o’qib, hidoyat topmasa u qur’onda emas, ayb u qur’onda nuqson bor degani emas musulmonlar g’ayri dinlarga, olimlar odamlar ilm haqini yetkazsa odamlar sustlik qilsa da’vatdan nuqson degani emas bo’lmasa payg’ambarlarga iymon keltirmaganlar nega ular iymon keltirmadi? Payg’ambarlar da’vatda nuqsonga yo’l qo’ymagan, yo’l qo’yishi mumkin ham emas, ayniqsa Rosululloh s.a.v chunki Rosululloh s.a.v ning da’vatlar osmonu falakda, o’ta yuksak lekin, shunda ham iymon keltirmaganlar ham bo’ldi, huddi shuni singari yetkizilib berilaveradi, Qur’on o’qib beriloradi lekin hidoyat Allohda bandaning qalbiga qarab bo’ladi, istagiga qarab bo’ladi, istagiga qarab Alloh qarab yetkizadi.

Inson zoti ushbu foniylar dunyoga nima sababdan kelganligini yahshi anglashi lozimdir. Yana Alloh Taolo marhamat qiladi: “Sen albatta, Alloh kimni xohlarsa, zalolatga ketkazadir va o’ziga yo’nalganlarini hidoyat qiladir” deb ayt. (Ra’d 270)

Islom dini har bir insonni o’z irodasiga ega ekanligini tan oladi, lekin bu xohish va iroda Alloh Taoloning xohishi va irodasidan tashqarisiga chiqa olmaydi. Bu foniylar dunyoni yolg’onlariga uchib qolmasligi darkor. Inson dunyoga kelar ekan u albatta, buning ajru mukofotini albatta, bu dunyo va ohiratda ham oladi. Inson zoti bu dunyoga nima sababdan qanday vazifalari borligini bilmaguncha bandalik burchini ado etolmaydi. “Yaratgan egamiz Alloh Taoloni amrlarini bajarib, Payg’ambarimiz Rosululloh s.a.v ni sunnatlariga amal qilyapmiz deymizu takabburligimiz tufayli adashyotganimizi, g’afatda qolyatganimizi sezmaymiz, halol yashayapmiz deymizu, halol va haromni ajrata olmaymiz, har bir

musibatlarga sabr qilyapmiz deymizu ich ichimizdan noroziligimizi bildirib yashaymiz, Alloh Taolo har narsadan habardor edeymizu lekin uni bizlarni ko'rib turganini unutamiz, g'aflatda yashaymiz. Bu dunyoda nafsimiz quli bo'lib qolmaylik. Alloh Taolo barchamizni o'z hidoyat nuri ila nurlantirsin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.<https://m.anii.uz>
- 2.<https://uz.m.wikipedia.org>
- 3.<https://uztext.com>
- 4.“Tavhid aqidasi” kitobidan Shayh Solih ibn Favzon ibn Abdulloh al – Favzon 58,104, 119 bet.